

**XALQARO YUK TASHISHLARNI AMALGA OSHIRISHDA TRANSPORT  
KORXONALARINING TUTGAN O'RNI**

**Qurbonov X.A., Abdullayev J.X.**

Termiz muxandislik-texnologiya instituti

[urshid.kurbanov@gmail.com](mailto:urshid.kurbanov@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Respublikamiz tashqi savdo salohiyatini rivojlantirish va tashqi iqtisodiy faoliyatida transport ta'minotini rivojlantirish va uning salbiy oqibatlarini oldini olish masalalari bayon qilingan.

**Tayanch so'zlar:** (o'zbek tilida) karxonaning tashqi iqtisodiy faoliyati, transport ta'minoti, transport maxsuloti, transport jarayoni, ishlab chiqaruvchi, istemolchi, import-eksport, transport operatsiyalari tarkibiy kismi.

**THE ROLE OF TRANSPORT ENTERPRISES IN THE  
IMPLEMENTATION OF INTERNATIONAL CARGO TRANSPORTATION**

**Abstract:** this article describes the issues of development of foreign trade potential of the Republic and development of transport supply in foreign economic activity and Prevention of its negative consequences.

**Key words:** foreign economic activity of the quarry, transport provision, transport product, transport process, producer, consumer, import-export, structural unit of transport operations.

Avtomobilarda yuk tashish faoliyatida amalga oshirilayotgan rivojlanishlar tashish faoliyati bilan shug'ullanuvchi xususiy korxona va tashkilotlarga faqatgina ichki emas balki, tashqi bozorda ham raqobatbardoshlikni ta'minlashlari kerakligini ko'rsatib qo'ymoqda.

Avtomobillarda yuk tashish jarayonlarini tizimli tashkil etish falsafasi biznesning tayanch falsafasi bo‘lishi lozim. Tijoratchilar, iqtisodchilar, turli tarmoq menedjerlari logistika konsepsiyasini tushinishlari va qabul qilishlari, jarayonlarni logistik tashkil etishning asosiy usullarini bilishlari hamda erishiladigan samarani ko‘zda tutadigan bo‘lishlari kerak.

Korxonaning tashqi iqtisodiy faoliyati transport ta’minoti bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liqdir, ya’ni tovarni ishlab chikarilish joyidan uni iste’molchigacha yetkazib berish jarayoni korxonaning asosiy transport faoliyati hisoblanadi. Umuman olganda u logistika kontsepsiyasiga tayanadigan tovar oborotiga o‘xshash. SHu bilan birga transport ta’minotini tovar almashinuv tizimining mustaqil aspekti sifatida qarash maqsadga muvofiqdir.

Transport ta’minoti deganda bevosita o‘zaro aloqada bo‘lgan va yagona transport tizimini tashkil etuvchi elementlarning yig‘indisi tushuniladi, qaysiki ishlab chikarish va maxsulot aylanishi bilan bog‘lik operatsiyalarni birlashtiradi.

Transport mahsuloti deganda tovarlarning ishlab chiqaruvchidan iste’molchiga yetib borish jarayoni tushuniladi. Bu narsa transport xizmatlarining asosiy ma’nosи hisoblanadi. Ular sotuvchi va iste’molchi o‘rtasidagi asosiy bo‘g‘indir.

Korxonaning tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlanishida transport muhim rol o‘ynaydi. Uning yaxshi faoliyat ko‘rsatishi tomonlarning oldi sotdi majburiyatlarini bajarilishini ta’minlab beradi. Transport jarayonining buzilishi eksport va import qiluvchining moddiy yo‘qotishlariga olib keladi va milliy tovarlarni noraqobatbardosh qilib qo‘yadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatda transport ta’minoti muhim hisoblanadi. Ko‘pincha yuk egasining transport vositasini tanlashda ba’zi muammolarga duch kelishi mumkin, chunki undan boshqa mamlakatlarning qonunlarini, xalqaro konvensiyalarni (kelishuvlarni) transport vositalarining texnik ekspulatatsiya xarakteristikalarini bilish professional darajada talab qilinadi.

Shuning uchun xam yuklarni xorijga jo‘natishdan oldin xalqaro tashuvlarni amalga oshiruvchi transport tashkilotlari bilan yaqin aloqalar o‘rnatish maqsadga

muvofikdir. Bunda xorijga yukni junatish uchun kerak bo‘ladigan transport turini tanlash muhim hisoblanadi.

Halqaro tashuvlar tushunchasi bir nechta xalqaro kelishuvlarda va mamlakatlar konunchiligidagi o‘z aksini topgan, bunday tashuvlarga ikkita va undan ortik mamlakatlar o‘rtasidagi qatnovlarni keltirish mumkin.

Halqaro tashuvlarning asosiy xususiyati bo‘lib, xorijiy elementlarning mavjudligi, xalkaro kelishuvlar asosida amalga oshiriladigan tashuvlar xisoblanadi. SHu bilan bog‘lik holda xalqaro iqtisodiy alokalarning transport ta’minotini o‘rganish bo‘yicha muammolar kelib chikadi. Savdo kelishuvlari bilan bog‘liq muammolarni yechish uchun transport xizmatlari va ta’riflarini, bozor konyukturasini bilish muhimdir. Eksport-import operatsiyalarini amalga oshirish bo‘yicha tovarlarni tashish juda muhim ahamiyatga ega.

**Xulosa:** Tashqi iqtisodiy aloqada transport tizimlarining tutgan o‘rni katta rol tutadi. Transport tizimi ishlab chiqaruvchi korxona va istemolchi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikdir. Uning yaxshi faoliyat ko‘rsatishi tomonlarning oldi-sotdi majburiyatlarini bajarilishini ta’minlab beradi. Xalqaro tashuvlarni amalga oshirishda boshqa davlatlardagi transport tashkilotlari bilan xamkorlikda ishlash shartnomalar tuzish ko‘rsatkichlarini oshirish va moddiy oqimlarni eng optimal yo‘nalishlarda amalga oshirish maqsadga muvofiq xisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. SteadieSeifi M., Dellaert N.P., Nuijten W., Van Woensel T., Raoufi R. Multimodal freight transportation planning: A literature review. European Journal of Operational Research. 233 (2014). 1–15.
2. Merenkov A.O. Zarubejnyy opyt v oblasti realizatsii intellektualnykh transportnykh sistem/ Vestnik Universiteta №7.-2015.  
<https://cyberleninka.ru/article/n/zarubezhnyy-opyt-v-oblasti-realizatsii-intellektualnyh-transportnyh-sistem>.

3. N. Nesterova, S. Goncharuk, V. Anisimov, A. Anisimov, V. Shvartcfel, Set-theoretic Model of Strategies of Development for Objects of Multimodal Transport Network. <https://doi.org/10.1016/j.proeng.2016.11.892>.
4. Bo‘taev SH.A., Sidiqnazarov Q.M., Murodov A.S., Qo‘ziev A.O‘. Logistika (etkazib berish zanjirida oqimlarni boshqarish).-Toshkent: Extremum-Press, 2012.- 577 b.
5. I. Kabashkin, Modelling of Regional Transit Multimodal Transport Accessibility with Petri Net Simulation// Procedia Computer Science 77 (2015) 151 – 157. <https://pdf.sciedirectassets.com/>